

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

## OKKAZIONAL PRAGMALEKSEMALARNING YASALISHIGA DOIR

**Sevara Mahmudova,**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

**Annotatsiya:** So‘nggi yillarda pragmalingsvistika tilshunoslik tadqiq etuvchi eng dolzarb sohalardan biriga aylandi. Zero, til birliklarining pragmatik xususiyatlari uning struktur va semantik jihatlari bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Pragmatika til birliklarini undan foydalanuvchi kishilarga nisbatan tasniflovchi va o‘rganuvchi sohadir. Muallif turli manbalardan olingan misollar yordamida o‘zbek tilidagi pragmaleksemalarning yasalishi va uning struktur-semantik jihatlarini tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *okkazionalizm, so‘z yasash, pragmaleksema, kontekstual pragmaleksema.*

**Аннотация:** В данной научной статье рассматриваются способы образования окказиональных прагмалексем и их разновидности. Исследования направлены на модельное образование окказионализмов в контексте словообразовательных средств.

**Ключевые слова:** *окказионализм, словообразование, прагмалексема, контекстуал прагмалексема.*

**Abstract:** *This article analyzes the occasional pragmaleksems in the Uzbek language and their methods.*

**Keywords:** *occasionalizm, word formation, pragmaleksema, contextual pragmaleksema.*

So‘nggi yillarda pragmalingsvistika tilshunoslik tadqiq etuvchi eng dolzarb sohalardan biriga aylandi. Zero, til birliklarining pragmatik xususiyatlari uning struktur va semantik jihatlari bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Pragmatika til birliklarini undan foydalanuvchi kishilarga nisbatan tasniflovchi va o‘rganuvchi sohadir.[1,344]O‘zbek tilshunosligida ham okkazionalizmlarning pragmatik jihatlarini hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Okkazionalizmlarning yasalish mohiyatining asosini pragmatika tashkil etadi. Shu sababli ko‘pgina tilshunoslar okkazionalizmlarni okkazional pragmemalar deb ataydilar va ularni tasnif qiladilar.[2,20]

Ijodiy so‘zning badiiy qimmati, san’at unsuri sifatidagi maqomi uning matniy asoslanganligi - yaratilish ehtiyoji va yasalish jarayonining ko‘rsatib berilganligi bilan belgilanadi. Ijodiy yasalmaning matniy, badiiy asoslanganligi bayon usuli, tasvirlash tarzi, matnning tarkiblanish hususiyati, lisoniy qurshovning o‘ziga xosligi kabilar bilan ham, shaxs yoki voqea- hodisalarning tabiati, yozuvchining maqsadi, nutq vaziyati kabi nolisoniy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, “Xalq so‘zi” gazetasidagi bir maqolada (2014 yil 13 aprel) Imperlandiya (qiyoslang Irlandiya, Islandiya) so‘zi yasalgan: “Bor ekanu yo‘q ekan, haqiqiy ertaklardagidek aytiladigan bo‘lsak, imperlandiya degan juda katta mamlakat bo‘lgan ekan.

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Kunlardan bir kuni bu mamlakat g‘olib bo‘libdi. Yo‘q, g‘olib bo‘lmabdi, parchalanib ketibdi, chunki uning qismatiga shu yozilgan ekan.

O‘sha ulkan davlat o‘rnida o‘n beshta yangi davlat paydo bo‘libdi. Ular mustaqil, o‘ziga hos hayot kechirishi, gullab-yashnashi lozim, lekin bunga erishish oson emas ekan. Chunki bu davlatlarga imperiya ho‘jaligidan iqtisodiyotni boshqarishning chirib ketgan, hech narsaga yaroqsiz vositalari meros bo‘lib qolgan ekan. Xo‘jalikning o‘zi ham... Imperlandiyaning bepoyon yerlarida tarqoq joylashtirilgan ekan”.

“Imperlandiya” kontekstual pragmemama bo‘lib, yasalishi bayonining xalq ertaklari uslubi hamda mazmunining o‘quvchiga ma‘lum ma‘lumotlar asosiga qurilganligi bilan ham, matnda “imperiya” so‘zining ishlatilganligi bilan ham bog‘liq. Bu yangi so‘zni o‘zga bir matn tarkibida ko‘r-ko‘rona kiritish (ko‘chirib qo‘llash) ni so‘z qo‘llashdagi uquvsizlik bilan izohlash mumkin.

Kontekstual pragmemalar, odatda, umumadabiy til, hatto umummilliy til lug‘atida noma‘lum bo‘ladi. Ular o‘zlarining yangilik sifati bilangina emas, balki favquloddaligi, g‘ayriodatiyligi, “g‘alatiligi” bilan e‘tiborni o‘ziga tortadi. Lekin, bu “g‘alatilik” ularni matn tarkibi uchun g‘alati (aybli) qilib qo‘ymaydi. Chunki shaxsiy-ijodiy yasalmaga alohida ma‘naviy-uslubiy vazifa yuklangan bo‘ladi. [3,167]

Matn (yoki nutq vaziyati) ularning yasaliş tarzini va ma‘nosini oydinlashtirib asoslab beradi. Bundan tashqari, har qanday matniy pragmemama ijodiy so‘z o‘ziga boshqa odatdagi “jinsdosh”, “toifadosh” maromli so‘zlarga “taqlidan” yasaladi va shularga xos sifatlar asosida idrok etiladi. Masalan, “Bu cho‘mich talay cho‘michkashlarni semirtirmasin, lekin ba‘zi boshlarni ham yordi. Bo‘ladi-da. Lekin Og‘ayev cho‘michdosh og‘aynisi... boshi yorilganiga qaramay, cho‘michning hurmatini baland tutdi” (“Xalq so‘zi”) Cho‘michkash, cho‘michdosh, -kash, -dosh, qo‘shimchali odatdagi so‘zlar (tarafkash, janjalkash, suhbatdosh, shishadosh) va ularga xos yasaliş andozasi orqali fahmlanadi. Lekin ulardan noodatiyligi, maromsizligi bilan ayni shu nutq vaziyati uchun ma‘lum maqsadda bir marta qo‘llash uchun yasalganligi bilan ajralib turadi. Bunda nutq vaziyatining ham, matn mazmunining noodatiyligi, odatdagi, maromli hodisalardan o‘zgacha ekanligi bilan aloqadorlik bor. Shunga ko‘ra, so‘z ijodkorligi, eng avvalo, matn uslubi va muallif mahorati va nutq nafosati muammosiga daxldor uslubiy hodisa nutq san‘atlari maqomida tahlilu talqin etishni taqozo etadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, shaxsiy-ijodiy yasalma yangi so‘z yasash uchungina yaratilmaydi. Fikrimizcha, so‘z ijodkorligi inson (san‘atkor) tafakkuri sohasiga daxldor hodisa. Suqrot ta‘biricha: “Tafakkur so‘zi yangilikni ilg‘ab olish, yangilik esa

## “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

doimiy o‘zgarish demakdir.” Binobarin, san’atkoru olimning ( umuman insonning) voqelikka, narsa tushunchalarga yangicha munosabati aslida yangi ma’no, yangi so‘zga ehtiyojni tug‘diradi. Zero, kulgidoshlar, kulgikorlar, kulgiskop, kulgidrom, kulgiklinika, kulgimitsin, tabassumiddin, tanqidamin, miniatyurakardin, felyetonamidin”, “Mushtumahol” (Mushgtum jurnalidan), ishqilin, modazol, iljayzon, shafqatmitsitol (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi) kabi ijodiy yasalmalar muallif uchun zarur bo‘lgan mazmuniy tovlanishni ta’kidlash lozim bo‘lgan ma’no qirrasini ifodalashga xizmat qilgan, uning voqea-hodisaga shaxsiy munosabati, bahosi ayon bir so‘z shaklida yuzaga chiqqan.[4, 27]

Shu jihatdan S.Ahmadning “Supakor”, SH.Boshbekovning “Ko‘pikdoshlar” hajviyasi e’tiborga molik. Sarlavhaga chiqarilgan ijodiy yasalgan so‘z hajviyaning umumiy mazmunini ham, unga bo‘lgan san’atkor munosabatini ham, hatto asar matni tartiblanish tarzini ham, belgilab beruvchi asosiy uslubiy kalit maqomini kasb etgan. Fikr mavhum bo‘lmasligi uchun bu hajviyalardan ba’zi ko‘chirmalarni keltiramiz.

Bizning Odayev, alohida, maxsus supakor. U yasagan supalarda tirik odamlar emas, o‘liklar (haykallar demoqchi) o‘tiradi....Odayev yasagan supalariga haykaltaroshlar qatorida 12 marta konkurs mukofotini oldi...Odamzotning beldan yuqorisi ishlangan haykal “byust” deyiladi. Odayev bunga no‘noq edi. U doim supasini ishlardi. Shuning uchun studentlar uni Odayev demay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri “supakor” deb deb atashardi.

Lotos nutqini avjidan boshladi: ”Hurmatli ko‘pikdoshlar! Umumiy ishimiz uchun zarur ekan, men istalgancha ko‘pirishim mumkin. Ahli majlisni va shaxsan Tog‘orajon akamlarni ishontirib aytamanki, bundan keyin ham butun kuch – quvvatimni ishga solib, osmon qadar ko‘pirishga doim tayyorman!...Tog‘ora kirsovun tomonga qarab istehzoli to‘ng‘illadi:....So‘ng xotirjamroq ohangda dedi: - So‘z hurmatli ko‘pikshunosimiz Mochalkaga!

Ijod qilingan bu so‘zlar og‘zaki nutqda odatiy bir lisoniy o‘yinga, shunchaki hazil–mutoyibaga o‘xshab ketadi.Ammo ular hajviyalar mazmuni, yozuvchilar maqsadini badiiy jihatdan o‘ziga xos tarzda ifodalashning ijodiy bir usuli ekanligiga ishonch hosil qilasan. Va beixtiyor har bir so‘zning o‘zi bir asar deging keladi.Xalq maqollarini alohida bir janr (asar) sifatida baholanishini eslasak, so‘z ijodkorligini ixcham lisoniy badiiy asar maqomida (mubolag‘ali) baholash unchalik erish tuyulmasa kerak.

Tom ma’nodagi ijodiy yasalmaning yasalish tarzi, qanday qismlardan tarkiblanganligi va bu tarkiblanish uchun asos bo‘lgan mazmun (ba’zan hatto voqea) matnning o‘zida oshkor etiladi - o‘quvchi favqulodda so‘zning tug‘ilishi jarayoniga

# “UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

guvoh bo‘ladi. A.Oripov “Mustay Karimga” she‘rida Oyguliston, Boshqirdiston so‘zlari andozasida Mustayiston so‘zini yaratadi. Bu so‘z butun she‘r mazmunining ixcham umumlashmasiday, matnning o‘ziga xos favqulodda xulosasiday tasavvur uyg‘otadi:

Ajib, bitta yurtning uchta nomi bor,  
Uchinchi ushbu nom menga ayondur  
Bu she‘riy qo‘rg‘ondir, mangulikka yor,  
Bu ulug‘ she‘r yurti Mustayistondir.

Ushbu to‘rt misraning mazmuni ham, tartiblanish tarzi ham “Mustayiston” so‘zining yaratilishi uchun xizmat qilgan. Ijodiy yasalmaning mana shu jihatlariga e‘tibor bermay matnda uning yasaliş mohiyatini moslamay qo‘llash uning ma‘nosini, vazifasini fahmlashga to‘sqinlik qiladi. Matnda yangi so‘zni yuzaga kelishini asoslashga xizmat qiluvchi ma‘lum ishora, juda bo‘lmaganda, uni o‘ziga o‘xshash boshqa bir so‘zga muqoyasa qilish orqali tushunish imkoni yaratilishi lozim. (ijodiy yasalmaning badiiy tasviriy kuchi uning tug‘ilishi jarayonining ko‘rsatib berilishi bilan ham bog‘liq. Bu jarayon, avvalo, o‘quvchiga yangi so‘zning yangiligini, favquloddaligini, odatdagi so‘zlardan o‘zgachaligini idrok etishga imkon beradi. Shu orqali mazkur so‘zning ma‘noviy-lisoniy, matniy, ijodiy maqomi his etiladi.

Ikkinchidan, bu o‘quvchi ongida til lug‘ati uchun ma‘lum (til tizimi) va noma‘lum (nutq matnda yuzaga kelgan) yasalişlar o‘rtasidagi muqobillik tasavvurini tug‘diradi: mumkinlik va mumkin emaslik, umumiylik va shaxsiylik, odatiylik va noodatiylik, maromlilik va maromsizlik o‘rtasidagi ziddiyat nutqiy estetik mohiyat kasb etadi. Bu badiiy tafakkurning shaxsiy-ijodiy tutumiga, lisoniy-uslubiy yangilikka intilish, nutqiy andozalardan, qat‘iy marom va muntazamlikdan qochish va muhim talablariga ham mos keladi. Demak, okkazional pragmaleksemalar fikr bayon qilishning muhim kompozitsion uslubiy unsuri vazifasini o‘tashi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова. О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1969.
2. Красникова И.Р. Прагматика окказиональных антрополексем в современном русском языке. АКД 2004.
3. Папуля Ю.Н. Окказионализмы новейшего времени : Структурно-семантический и функционально-прагматический аспекты. АКД. Ростов на Дону. 2005.

**“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK  
TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

4. To‘xtasinova O. O‘zbek tilida leksik okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari: filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2007.